

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.D.Dehqonov	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
X.M.Xoshimxonov	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
M.A.Muxiddinova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
Y.A.Saidova	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	208
Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
M.M.Azizov	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida	218
D.V.Vohidova	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
X.X.Raxmatova	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati	227
X.X.Raxmatova	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
O.L.Berdiyev	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari	237
D.D.G'ulomov	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida)	243
D.I.Gulamova	
Interpretation of euphemisms used in social life	246
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar	250
B.O.Komilova, M.R.Toxirova	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri	254
B.O.Komilova	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	260
A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
Sh.K.Abduraxmonov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjanova	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
O.Ortiqov	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
M.C.Курбоналиева	
Муаррифии чанд тазираи умумии шоирони асри xviii	286
X.A.Lutfullayeva	
Problems of developing self-educational skills of students	293
P.Абдуллаев	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ	298

XOTIRA

Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi	304
--	------------

ABU ALI IBN SINO VA NOSIRUDDIN TUSIYNING FALSAFIY QARASHLARI
ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНА И НАСИРУДДИНА ТУСИ
PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABU ALI IBN SINA AND NASIRUDDIN TUSI

Berdiyev Orifjon Lermontovich¹

¹Buxoro davlat universiteti Ё Islom tarixi va manbashunosligi falsafa kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilk Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino hamda uning izdoshi bo'lgan Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan hamda bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье сравниваются философские взгляды Абу Али ибн Сины и его последователя Насируддина Туси великого мыслителя периода Раннего Возрождения, и раскрывается их значение.

Abstract

This article compares the philosophical views of Abu Ali ibn Sina and his follower Nasiruddin Tusi the great thinker of the Early Renaissance, and reveals their significance.

Kalit so'zlar: *aql, axloq, baxt-saodat, lazzat, insoniylik, fazilat, nafs, sabr-toqat, saxiylik, g'ayratlilik.*

Ключевые слова: *интеллект, мораль, счастье, удовольствие, человечность, добродетель, желание, терпение, щедрость, энтузиазм.*

Key words: *intelligence, morality, happiness, pleasure, humanity, virtue, desire, patience, generosity, enthusiasm.*

KIRISH

X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sino va XIII asrda yashab ijod qilgan Nosiruddin Tusiylarning falsafiy qarashlari bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Faylasuflar o'zlarining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodlari, boy meroslari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynashdi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda Ibn Sino va Tusiylarning ilmiy meroslarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va rolga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Abu Ali ibn Sino va Nosiruddin Tusi O'rta asrlarda yashagan yetuk olimlar hisoblanib, ularni o'z ruhiyati, kuchi, qomusiy aqli, ilmiy-falsafiy intilishlari va talablari bilan uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari bilan qiyoslash mumkin. Ularning asarlarida ilmiy teranlik, falsafiy mushohadaning kengligi ko'zga tashlanadi. Abu Ali ibn Sinoning ko'p tomli qomusiy "Shifo", mashhur 5 kitobdan iborat "Tib qonunlari" hamda Nosiruddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarlari buning yaqqol isbotidir. O'z asarlarida mantiqiy madaniyat yutuqlarini umumlashtirib, ularni o'zining shaxsiy yangiliklari bilan to'ldirgan holda, Ibn Sino, YUNESKO ning Bosh konferensiyasining XX sessiyasi qarorida ko'rsatib o'tilganidek, falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, she'riyatning rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib, dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fan taraqqiy etishiga katta ta'sir o'tkazgan. Ular yashagan davrdan keyin 10 asr vaqt o'tdi. Bu davr ichida falsafa va ilm-fan oldinga salmoqli qadam tashladi: falsafaning yuqori shakli - dialektik va tarixiy materializm vujudga keldi, fan atom sirini ocha oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda Ibn Sino va Nosiruddin Tusiylarning qarashlaridagi ko'plab narsalar zamonaviy tushunchalarga hamohangligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Ularning go'yolari zamonaviy ilmiy bilimlar xazinasiga ham kiritilmoqda. Ularning olamning abadiyligi hamda materiya buzilmasligini ta'minlovchi atributlar haqidagi g'oyalari, tabiiy qonuniyat, hodisalarining sababli bog'liqligi va umumiy o'zgaruvchanligi, olamni anglash va boshqa g'oyalari bunga misoldir.

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sino 1002 yilda Buxorodan chiqib ketadi. Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda

bo'ladi. Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G'arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. U 1037 - yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yozganligi ma'lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o'ndan ortig'i astronomiyaga oid asarlar va hokazo...

Uning nasriy asarlari arab tilida yozilgan. «Yusuf» qissasi Qur'on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo'lib, ramziy-majoziy usuldadir. «Risolat - at tayr» («Qush risolasi»), «Uyg'oq o'g'li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «Salomon va Ibsol» esa ishqi-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g'azal, ruboiy, fardlar yozgan. Asarlari: «Kitob ash-shifo», «Donishnoma», «Kitob al-qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi», 5 kitob, 14 jilddan iborat bo'lgan), «Tibbiy urjuza», «Faan ash-she'r» («She'r san'ati», she'r ilmi, yunon she'riyatining tur va shakllari haqida), «Musiq ilmda katta to'plam» va boshqalar. Ibn Sinoning tasavvufiy asarlar doirasiga «Qushlar haqida kitob», «Sevgi haqida kitob», «Duo mohiyati haqida kitob», «Ziyoratchilik mohiyati haqida kitob», «O'limdan qo'rqishdan xalos bo'lish haqidagi kitob», «Qismat kitobi» kabilar kiradi.

Ibn Sino tabobat bilan juda erta qiziqqan va bu soha uning qiziqishlarining katta qismini egallay boshlaydi. Hali 12 yoshga to'lmasidanoq, Ibn Sino o'sha vaqtlarning faylasufi va tabibi Abu Salah al-Masihning maslahatiga ko'ra uning ta'limotini egalladi. U tez orada shunchalik mashhur shifokor bo'lib ketadiki, uni saroyga og'ir kasal bo'lib qolgan Buxoro amiri Nuh ibn-Mansurni davolash uchun chaqirtirishadi. Minnatdorlik evaziga Ibn Sino somoniylarning kitob omboridan foydalanish ruxsatiga ega bo'lgan. Buxoro kutubxonasi — o'z davrining eng yirik va eng mashhur kitoblar ombori hisoblangan.

Umrining so'nggi o'n tort yili Isfahonda (1023-1037) amir al-Davla saroyida xizmat qilish bilan o'tadi. U bosh shifokor va amir maslahatchisi bo'ladi va hatto uni yurishlarda ham kuzatib borgan. Bu yillar davomida Ibn Sino o'zining tanqidiy yondashuvi bilan adabiyot va falsafa ta'limoti bilan shug'ullanadi. Uning ko'p qo'lyozmalari, shu jumladan, «Insof kitobi» («Kitab ul-insaf») Isfahonga G'azna qo'shinlari bosqinchiligi sababli yonib ketgan. Isfahon podshosining yurishlaridan birida Ibn Sino og'ir oshqozon kasaliga chalilib, uni tuzata olmaydi. Ibn Sino 1037-yili iyun oyida notanish odamga vasiyatini aytib, vafot etadi. O'z vasiyatida u barcha qullarini ozod etib, barcha mol-mulkini kambag'allarga tarqatishlarini so'raydi. Ibn Sino Hamadonda shahar devori ostiga ko'milgan, oradan sakkiz oy o'tgach, uning xoki Isfahonga olib o'tiladi va amir maqbarasida qayta ko'miladi.

Abu Ali Ibn Sino asarlarida kamolotga erishishning birinchi mezonini -ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib, avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, - deydi u. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish lozimligini, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim. Ibn Sino o'zining «Axloq haqidagi risola»sida axloqiy xislatlardan or -nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi. Ibn Sino o'zining bu asarida insonning umumiy fazilati haqida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari haqida to'xtaladi. Ibn Sino fikricha, yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishiga hukumat ahllarning ham ta'siri kattadir. Olimning axloqiy qarashlarini uning «ash-Shifo» asarlarining ko'pgina bo'limlarida ham uchratamiz. Bunda Ibn Sino insonda bo'ladigan g'azablanish, xavfning paydo bo'lishi, qo'rqoqlikning ma'nisi, uyalish va surbetlik xislatlarining qanday kelib chiqishi haqida bosh qotiradi, kishidagi g'amxo'rlik va shafqat deganda nimani tushunish kerakligi, shu bilan birga, kishidagi hasad, o'ch olish, g'ayrlik va nafarat, mensimaslik kabi axloqiy illatlarga batafsil ta'rif

beradi. Ibn Sino arzimagan kasallikka bardosh bera olmaslik, yengiltaklik, birovning mehnati evaziga topilganlarni o'zlashtirib olish, kekkayish kabi xislatlarni qoralaydi, ularni yomon odatlar qatoriga kiritadi. U kishidagi qiziqqonlik ham kishining or-nomusini yerga uradigan xatti-harakatlardandir deb hisoblaydi. Ibn Sino yozadi: "Insonlarning doimiy tobe bo'lib yashashlari, boshqalar tomonidan o'z nafsini masxara qilishiga chidash, jabr-zulmga toqat qilish, yetishmovchilik kabilar kishini keyinchalik qiziqqon bo'lishiga sabab bo'ladi"[10].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Ibn Sino insonning yaxshi axloqiy fazilatlariga kishilarning yomon xulq va xatti - harakatlarini qarama-qarshi qo'yadi. U inson qochishi kerak bo'lgan nuqsonlarga aldash, nafrat, zaiflik, rashk, adovat, o'ch olish, sergaplik, so'kinish, bo'hton, bema'nilik, irodasizlik va boshqa yomon xislatlarni kiritadi. Eng katta nuqson deb, kishining yuksak fazilati hisoblangan, ilmga qarama-qarshi turgan johillikni tushunadi. Uningcha, yanglishish – fikr ravshanligiga, axmoqlik – ziyraklikka, nafrat – sevgiga, takabburlik va shafqatsizlik – adolatga qarshi turadi. Axloq normalarini kasb etishda odat katta rol o'ynaydi. Yomon xulq kabi yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ibn Sino o'zini nazoratga olish maqsadida shunday deydi: - "Men tafakkur qilib, o'zimga zarur bo'lgan nasalarni o'qishga kirishdim; bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zimni ko'p yomon kirdikorlardan saqlashga ulgura oldim; yomonliklardan chetlashishga olib boradigan har xil xususiyatlarimni bilib oldim. Qaysi fe'l-atvorim menga do'st-u qaysisi dushman ekanini, qaysilarining meni to'g'ri yo'lga-yu, qaysilari egri yo'lga boshlashini angladim. Xullas, men o'zimni o'zim yaxshilab sinchiklab o'rgandim, kimligimni tushundim va shundan keyin ishimni bilib qilgan edim, natijada katta-katta yutuqlarga erishdim"[11]. O'z qissalarida Ibn Sino mardlikni targ'ib qilib, munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokorlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi. Ibn Sino kishilarni ilm - fanni o'rganishga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi.

Ibn Sino tabiiy fanlar, mineralogiya, kimyo, botanika, astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot, musiqa rivojiga beqiyos hissa qo'shgani bois uning yaratgan asarlari dunyo tillariga – nemis, ingliz, rus, arab, ispan, italyan, fransuz kabi tillarga tarjima qilingan.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda sharq allomalarining ilmiy merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirilgan. Jahonning turli kutubxonalarida Abu Ali ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Shu jumladan, yurtimizda O'zbekiston FASHI da alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Ibn Sinoning g'oyalari rivojini va qarashlari evolyutsiyasini tushunish uchun uning 20 tomlik "Kitab al-Insaf" ("Adolatlilik kitobi"), ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ming afsuski, u yo'qolib ketgan. O'zining oxirgi asarlaridan bo'lgan "Mubahisat" ("Bahslar") kitobining kirish qismida olim shunday yozadi: "Men "Insaf" ("Adolat") nomli kitob yozdim. Bu kitobda men olimlarni 2 guruhga bo'ldim: sharqliklar va g'arbliklar. Ular doimo bahs-munozara yuritishadi. Har bir bahsda men ularning qarama - qarshi fikrlarini ko'rsataman va shundan so'ng ushbu masalaning adolatli yechimi yo'lini ko'rsataman. Kitobda taxminan 28000 ta muammo ko'rib chiqilgan".

Uning sharafiga Karl Linney Akant oilasiga mansub o'simlikni Avitsenniya deb nomlaydi. Tojikistonda Ibn Sinoning sharafiga Tojikiston davlat meditsina universiteti hamda avvalroq "Lenin tog'i" nomi bilan ma'lum tog' cho'qqisi nomlangan. Dushanbe shahrida uning sharafiga maydon nomlanib, ozarbayjonlik haykaltarosh Umar Eldarov tomonidan yasalgan olimning haykali o'rnatilgan. 2009 yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limiga hozirda Vena xalqaro markazi Memorial maydonidan joy olgan Fors olimlari pavilonini tortiq etadi. Fors olimlari paviloni o'z ichiga to'rt mashhur olimlarni olgan: Ibn Sino, Beruniy, Zokiriy Roziy hamda Umar Xayyom. O'zbekistonning Afshona qishlog'ida Ibn Sino muzeyi mavjud.

1990 - yil Buxoroda Abu Ali ibn Sino sharafiga nomlangan meditsina instituti ochilgan. Sovet va rossiyalik astronom Lyudmila Ivanova Chernix tomonidan 1973 - yil 26 - sentabrda ochilgan asteroidga Avitsenna - Ibn Sino nomi berilgan. Ibn Sino sharafiga Oydagi vulqon nomlangan. Kardiogrammalar va ko'krak bezlarining rentgen suratini avtomatik o'rganish uchun IBM tomonidan yaratilgan dastur Avitsenna nomini olgan.

Samarqandda, Buxoroda, Uchqo'rg'on tumanida Ibn Sino ko'chasi, Ust-Kamenogorskda, Donetskda Avitsenna ko'chasi mavjud. Anqara va Hamadon shaharlarida hamda Rigadagi Gaylezers kasalxonasi majmuasi parkida Abu Ali ibn Sino haykali bor.

Kinematografiyada “Avitsenna” filmi (1956) rejissyor Komil Yormatov tomonidan suratga olingan. Ibn Sinoning yoshlik va o‘spirin yillariga bag‘ishlangan O‘zbekfilm hamda Tojikfilm kinostudiyalari tomonidan ishlangan “Donishmandning yoshligi” filmi 1982-yilda suratga olingan. Olimning yoshlik yillaridan to vafot etguncha hayotidan hikoya qiluvchi 1987 - yil suratga olingan “Avitsenna” («Bu - Ali Sina») teleseriali. 2013 - yil N. Gordonning kitobi asosida («The Physician») Filipp Shtyolsning “Shifokor: Avitsennaning shogirdi” filmlari ekranga chiqdi.

Abu Ali ibn Sinoning hijriy sana (musulmon kalendari) bo‘yicha 1000 yillik yubileyi 1954-yili Tehronda va Jahon tinchlik Kongressida o‘tkazilgan. Shu vaqtda allomaning xoki eski maqbaradan yangisi (Hamadon)ga ko‘chirib o‘tkazilgan.

XULOSA

Xulosa qilganda, shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G‘arb madaniyatining rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari keyingi faylasuf olimlarning falsafiy ta‘limotlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Mutafakkir o‘z asarlarida ilm va odob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o‘zaro do‘stligi, hamkorligi, rahbarning burchi va mas‘uliyati to‘g‘risida qiziqarli g‘oyalarni ilgari surgan. Buyuk faylasuflarimiz ilgari surgan fikrlari bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda. Buyuk yurtdoshlarimizning o‘zlarining ilmiy - nazariy tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta‘siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Bu bugun o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib faoliyat ko‘rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya‘ni, dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o‘rmon yong‘inlari va boshqa shu kabi talofatlarning ro‘y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta‘sir etar ekan, uning o‘zi ham “aks ta‘sir”ga duch kelmoqda.

Endi bir oz Nosiruddin Tusiy haqida to‘xtalamiz. Abu Jafar Muhammad ibn Muhammad Nosiruddin Tusiy (1201-1274) - XIII asr fors matematik va astronomi, Kamoliddin ibn Yunusning shogirdi, o‘ta serqirra olim, falsafa, jo‘g‘rofiya, musiqa, optika, tibbiyot, minerologiyaga oid asarlar muallifi. Yunon ilmi bilimdoni bo‘lgan, Yevklid, Arximed, Avtolik, Feodosiy, Menelay, Apolloniy, Aristarx, Gipsikl, Ptolomeylarning asarlarini sharhlagan.

Nosiruddin at-Tusiy 1201-yil Xurosonning Tus shahrida tug‘ilgan va Qur‘on, hadislar, shia huquqshunosligi, mantiq, falsafa, matematika, tibbiyot va astronomiyani o‘rganib, o‘sha yerda yoshligidan tahsil olishni boshlaydi.

Tusiyning merosiga yuzlanar ekanmiz, biz yana bir bor dunyo va dunyo madaniyatining birligida vaqtlarning uzviy bog‘lanishiga amin bo‘lamiz. Shunday qilib, u o‘z asarlarida osmon mexanizmini asos qildi. 400 yil o‘tgach, ular G‘arbiy Yevropa olimlari tomonidan qayta kashf qilingan. Bolalar astronomi Tixo Brage (1546-1601) Tusiyning hisob-kitoblarini qaytarib, 700 dan ziyod yulduzlar katalogini tuzgan. Bragening ilmiy ishi asosida I. Kepler osmon mexanikasini yaratgan. I. Nyuton ularning mehnatlariga tayangan holda, mexanikaning tayanch qonunlarini yaratgan. Tusiyning matematik mehnatlari Italiya, Angliya, Fransiya - Yevropa Uyg‘onish davrining bosh markazlarida nashrdan chiqqan.

Tusiyning jahon ilm-faniga qo‘shgan ahamiyatli hissalaridan biri butun Sharqda tanilgan Marog‘adagi astronomik rasadxonasining yaratilishidir. Rasadxona 1259 - yil hozirgi Janubiy Ozarbayjon hududida tashkil etilgan.

Tusiy Hulaguga rasadxona qurilishi masalasida murojaat qiladi, ammo qurilish xarajatlari juda katta tuyuladi. Shunda Tusiy Hulaguga askarlar uyquga ketgan vaqt tog‘dan mis tog‘orani uloqtirishni tavsiya qiladi. Tog‘ora tog‘dan tushib, katta shovqin ko‘taradi va askarlar sarosimaga tushadi va Tusiy shunday deydi: “Biz bu shovqinning sababini bilamiz, askarlar esa bilmaydi; biz xotirjammiz, ular esa xavotirda; shuningdek, biz osmon hodisalaridan boxabar bo‘lamiz, biz yerda xotirjam bo‘lamiz”. Bu so‘zlar Hulaguni ishontiradi va rasadxona qurilishiga 20 dinor ajratadi. Tusiyning iltimosiga binoan, Hulagu askarlardan ularning qo‘liga tushgan olimlarni o‘ldirmay, Marog‘aga olib kelishlariga buyruq beradi, bu yerga mo‘g‘ullar qo‘llariga tushgan barcha qo‘lyozmalari-yu astronomik moslamalarni keltirishgan.

Nosiruddin Tusiy o‘zining ensiklopedik bilimi va aqliy salohiyati tufayli real voqelikning barcha ziddiyatlarini ko‘ra olgan takrorlanmas faylasuf hisoblanadi. Mutafakkirning falsafa,

axloqshunoslik, tibbiyot, biologiya, matematika fanlari, adabiyot, fiqh, hadisshunoslik, Qur'oni karimning sharhlari, kalom kabi ilmning barcha sohalarini qamrab olgan 200 ga yaqin asarlari[12] Sharq va G'arb olimlarining tadqiqot ob'yektiga aylandi. Tusiyy ijodining ensiklopedik xarakterga ega ekanligi uning dunyoqarashi haqida turli bahslarni keltirib chiqardi, mutafakkirning falsafiy - axloqiy qarashlari chuqur tahlil va taqlid ob'yektiga aylandi. A'som singari boshqa tadqiqotchilar ham Nosiruddin Tusiyni Bag'dod olimlari va faylasuflarini mo'g'o'llar bosimidan qutqarganligini ta'kidlashadi.

Mutafakkirning falsafiy qarashlarini tadqiq qilgan olimlar unga nisbatan juda ham yuqori baho beradilar. Masalan, akademik M.D.Dinorshoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mashhur ingliz sharqshunosi Arberrining "Nosiruddin Tusiyy Ibn Sinodek mutafakkirning maqomini egallashga qodir bo'lgan dovruc qozondi",- degan fikri to'laqonli asosga ega"[13]. Xuddi shunday fikrni arab faylasufi A'som ham bildirib o'tadi: "Nosiruddin Tusiyy falsafiy qarashlari bo'yicha Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mutafakkirlardan o'tib ketdi. Lekin Ibn Sino borasida bunday deyish mushkul, chunki Nosiruddin Tusiyy "Shayx-ur-Rais"ning "al-Ishorot va at-Tanbehot" asrining sharhini yozgan". Bundan tashqari A'som Tusiyni ham nazariya sohasida va amaliyotda sinochilikning asoschisi va izdoshi deb hisoblaydi. Nosiruddin Tusiyyning falsafiy qarashlari, xususan, ontologik va gnoseologik qarashlarida Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining kuchli ta'sirini ko'ramiz. Tusiyyning axloqiy qarashlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Falsafaning vazifasi, Nosiruddin Tusiyy fikricha, mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishi darajalarini atroflicha o'rganishdan iboratdir. Uning o'rgatishicha, olam yaxlit, murakkab borliqdir. Bu borliqni har tomonlama tekshirish uchun mutafakkir zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat prinsiplarini asos qilib oladi. "Borliqni, - deb yozadi ibn Sino, - ta'rifsiz aql orqali bilish mumkin, chunki uning turi, ko'rinishi yo'q, undan mashhur va umumiyroq narsa yo'q, uni ta'riflab bo'lmaydi. Borliq ikki qismga bo'linadi, ulardan biri borlig'i o'z zotidan bo'ladigan, ikkinchisi esa borlig'i zotidan boshqasidan bo'ladigan narsalardir. Birinchisi o'z zotidan boshqasidan bo'ladigan narsalardir". Buni Nosiruddin Tusiyy imkoniy vujud deb ataydi[14]. U zaruriy vujudni hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashkil etuvchi, eng irodali, qudratli, dono va biluvchi Tangri deb ataydi. Qolgan barcha narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujuddan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, Nosiruddin Tusiyy Xudo va barcha narsalarni – sabab va oqibat holatida bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Nosiruddin Tusiyy ilmiy falsafiy sistemasida sababiyat prinsipi muhim o'rinni egallaydi. Bu prinsip orqali Tusiyy butun borliqning, borliq predmetlari va hodisalarining kelib chiqishi, mavjud bo'lishini tushuntiradi. Nosiruddin Tusiyyning "Axloqi nosiriy" asarining ayrim boblaridan parchalar keltiramiz. Kimki bir ishda nom chiqarsa, o'sha ishda ustunlik va kamolotga erishishga harakat qilsin va past daraja bilan qanoatlanmasin. Shuningdek, o'zida bor ilm bilan qanoatlanib qolmasin. Bilish kerakki, kishilar uchun yorqin, ya'ni xursand kundan yaxshiroq ziyinat yo'qdir. Oila qurishga shunchaki shahvatni qondirish yoki boshqa shunga o'xshagan narsalar emas, balki molni himoya qilish va yaxshi nasl qoldirish kabi ikki narsa sabab bo'lishi kerak. Soliha ayol nikohda erkakning mol - dunyosi va uning qismlarida, uyni tutishda uning sherigi va erkak uyda bo'lmagan paytlarda uning o'rinbosaridir. Eng yaxshi ayollar aqlli, diyonatli, iffatli, zukko, hayoli, eriga yuragi achiydigan, mehrini izhor qiladigan, tilini tiyadigan, eriga itoat qiladigan, eriga xizmat qilishda o'z nafsini kamtar tutadigan, uning roziligi uchun o'zini baxshida qiladigan, viqorli, haybatli, o'z oilasiga juda yaqin turadigan, eri uchun o'zini ziyinatlab yuradigan bo'ladi. Va u aqim[11] bo'lmasligi kerak. Shuningdek, uyini tartib – intizomda saranjom tuta olish, uni asrab – avaylashdan xabardor va shularga qodir bo'lishi kerak. Davralarda, suhbatlarda muomalasi, quvnoqligi bilan barchaning ko'nglini ola biladigan, erning qayg'ularini esa quva oladigan bo'lishi lozim. Ayolda aql, iffat va hayo, albatta, bo'lishi shart. Go'zallik, nasab va boylikni shu uch xislatdan afzal bilish mashaqqatni olib keladi hamda din va dunyo ishlarini barbod qiladi. Ayolning go'zalligi uchungiga ularga sovchilikka borish mumkin emas. Farzand dunyoga kelishi bilan, birinchi bo'lib, unga yaxshi nom qo'yish kerak. Agar unga nomunosib ism qo'ysa, butun umri davomida bundan ko'ngli o'ksib yashaydi. Chunki enagadan farzandga yaxshi va yomon odatlar hamda ko'proq illatlar sut orqali o'tadi. Bolaning oziqlanishi, ya'ni emizilish jarayoni tugashi bilan oq uning odobi va axloqining tarbiyasi bilan shug'ullansin, toki bola boshqalardan yomon xulqni o'zida shakllantirishidan oldin ota – onaning o'zi unga yaxshi odob hamda tarbiyani o'rgatsin. Chunki bola juda sezgir bo'ladi va

yomon xulqqa mayli baland bo'ladi. U bolaligi tabiatidan u voyaga yetmagan va aqli mukammal bo'lmagan bo'ladi. Axloqini takomillashtirish uchun u atrofdagilarga taqlid qilishi kerak bo'ladi. Ya'ni bola atrofida qaysi hodisani ko'proq ko'rsa, o'sha narsa unda ko'proq rivoj topadi. Bolada tarbiyaning shakllanayotganining birinchi alomati bu unda hayoning namoyon bo'lishidir. Demak, e'tibor berish kerakki, agar unda hayo paydo bo'lgan bo'lsa, u ko'proq vaqt boshini quyi solib yuradi va yomonlik qilmaydi. Mana shu holatlar uning odobining dalillaridir. Chunki shunday bo'lsa, uning nafsi yomonliklardan uzoq va yaxshilikka moyil ekanligini ko'rsatadi. Bu narsa uning tarbiya topayotganining alomatidir. Shunday bo'layotgan bo'lsa, uni tarbiyalashga yanada ko'proq harakat qilish kerak hamda beparvolik va o'z holiga tashlab qo'yishdan saqlanish kerak. Bolaga tarbiya berishning boshi shu ediki, bu unga odobi qarama- qarshi bo'lgan bolalar bilan ko'p aralashtirish, ular bilan haddan tashqari ko'p o'tirishi va erkalanishidan ehtiyot bo'lsin. Chunki bolaning nafsi sodda bo'ladi va atrofdagilarning shakllari, harakatlarini juda tez qabul qiladi. Uning har bir yaxshi harakati uchun mehr berib, rag'batlantirib turish kerak. Xususan, mol-u dunyo va nasabi jihatidan emas, balki uning aqli, tarbiyasi, diyonati yaxshi tomonga rivojlanayotgani uchun ko'proq rag'batlantirish kerak.

Yuqoridagi parchalardan Nosiruddin Tusiyning oila, ayol va bolalarga qanday muomalada bo'lish kerakligi haqidagi fikrlarini bilib oldik. Darhaqiqat uning bu tavsiyalari hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb. Har bir kishi Nosiruddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarini o'qib chiqsa, albatta, o'ziga manfaatlarni topa oladi. Natijasi esa avval oilada, keyin butun jamiyatda ijobiy ko'rinishda aks etadi. Abu Ali ibn Sino va Nosiruddin Tusiy butun olamga dong'i ketgan hayot faylasuflari edi. Chunki ularning asarlari, falsafiy va axloqiy qarashlari hozirgi kunda ham insoniyat uchun ish bermoqda. Shuning uchun ham ularning shaxsiyati va asarlariga qiziqish va o'rganish hamon davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishorat va at-tanbihot" (Nosiruddin Tusiy sharhi) Qohira. Nosiruddin Tusiy "Axloqi nosiriy" asari. Tehron. 1356- hijriy-shamsiy yil.
2. Dinorshoyev M.D. Filosofya Nasiriddina Tusiy. Dushanbe. "Donish". 1968.
3. Abd al-Amir A'som. Faylasuf Nosiruddin Tusiy. Bayrut. 1980-y.
4. Nosiruddin Tusiy. Fan muammosiga sharhlar. Eron, Mashhad universiteti, 1345 h-sh.y.
5. Ibn Sino "Kitob ash – shifo" (Al – Xitoba) Qohira – 1954 147-b.
6. ziyo.uz.